

# O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 1 /SS: 12 (2024)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT  
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS



<b>№</b>	<b>MUNDARIJA</b>	
1.	ЎЗБЕКИСТОН СУФУРТА БОЗОРИДА ВОСИТАЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ <b>ЭКОНОМЕТРИК ТАХЛИЛ ҚИЛИШ ВА ПРОГНОЗЛАШ</b> <b>Матиязова Санобар Ражаббайновна</b>	1
2.	СУФУРТА БОЗОРИДА ИСТЕЙМОЛЧИЛАР ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ <b>Жакбаров Сардор</b>	4
3.	ТАКОФУЛ РИВОЖИНИНГ ТАРИХИЙ ЖИХАТЛАРИ ВА ТАРҚАЛИШ ГЕОГРАФИЯСИ <b>Абдуллаев Равшан Вахидович, Дадабаев Умиджон Абдусамат ўғли</b>	7
4.	ЎЗБЕКИСТОНДА СУФУРТА МАҲСУЛОТИНИ СОТИШ КАНАЛЛАРИНИНГ БУГУНГИ ХОЛАТИ <b>Абдимўминова Соодат Тахиржоновна</b>	10
5.	ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ СУФУРТАЛАШДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТАЛАБИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ <b>Нуруллаев Абдулазиз Сирожиддинович</b>	13
6.	O'ZBEKISTONDA SPORT SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI <b>M.N.Mamatov</b>	16
7.	SUVEREN KREDIT REYTINGNING MAMLAKAT MOLIYASIGA TA'SIRI <b>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</b>	19
8.	VENCHUR FONDLARINI TASHKIL ETISH: JARAYON VA STRATEGIYALAR <b>Talapova Nargiza Baxriddinovna</b>	21
9.	ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ БЮДЖЕТ СИЁСАТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ <b>Имомов Ҳамдила Ҳамдамович</b>	24
10.	MILLIY IQTISODIYOTDA MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARINI SHAKLLANISHDA HUDUDLAR IQTISODIY VA INVESTITSION SALOHIYATINING NAZARIY ASOSLARI <b>Yusupov Ruslan</b>	27
11.	LOGISTIKA VA TA'MINOT ZANJIRI JARAYONLARINI INTEGRATSİYALASH UCHUN MOLIYAVIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI <b>Maxmudov Samariddin Baxriddinovich</b>	31
12.	MDH MINTAQASIDA TRANSPORT SOHASIDAGI HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EOII TRANSPORT INTEGRATSİYASINING TASHQI OMILLARI VA XAVFLARI <b>Xo'jayev Fazliddin Elmurodovich</b>	35
13.	COMBATTING THE SHADOW ECONOMY AS AN IMPORTANT DIRECTION OF ECONOMIC POLICY FOR AN INCLUSIVE DEMOCRATIC SOCIETY (EXPERIENCE OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES AS AN EXPAMPLE) <b>Norbaev Tura, Abduraufov Jaloliddin</b>	37
14.	EVROOSIYO IQTISODIY HAMJAMIYATI BILAN IQTISODIY HAMKORLIK MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI <b>Hamdamova Nilufar Hamdullo qizi</b>	42



## O'ZBEKISTONDA SPORT SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI

M.N.Mamatov

TDIU mustaqili tadqiqotchisi, Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti, "Iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi

email: [mamatovmirzied@gmail.com](mailto:mamatovmirzied@gmail.com)

### ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 12

DOI:[https://doi.org/10.55439/INS/vol1\\_iss12/225](https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss12/225)

### ABSTRACT

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga bo'lgan e'tibor yildan-yilga ortib bormoqda. Ushbu maqolada yurtimizda sport sohasini ustuvor darajada rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlariga e'tibor qaratilgan hamda sport sohasini moliyalashtirish masalalari va sohada olib borilayotgan islohotlar yoritib berilgan. Shuningdek, sport sohasini moliyalashtirish masalalarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

### KEYWORDS

sport sohasi, sportni moliyalashtirish, byudjet mablag'laridan foydalanish, homiylik mablag'lari, sport inshootlari, sport tadbirlari.

### Kirish (Введение/Introduction)

Yurtimiz aholisi o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda jismoniy tarbiya va sportning o'mni beqiyosdir. Sport sohasini jadal sur'atlarda rivojlantirish natijasida bugungi kunda sportchilarimiz jahon arenalarida yurtimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarish bilan birga, respublikamizni xalqaro miqiyosidagi obro'sini sarband qilishda salmoqli hissalarini qo'shib kelmoqda.

Sport bilan mutazam shug'ullanish aholimiz, kelajak avlodlarimizning sog'lig'ini mustahkamlashda muhim o'rin tutishini inobatga olib, sport sohasiga davlatimiz ko'magida alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada yangi zamонави sport inshootlarining bunyod etilishi, ularni xalqaro standart talablarasi asosida sport inventarlari bilan jihozlash masalalari Prezidentimiz belgilab bergan sportni rivojlantirish basasidagi islohotlar natijasida amalga oshirib kelinmoqda.

Mamlakatimizda sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga bundan buyon ham katta ahamiyat berishni, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sportni ommalashtirish maqsadida eng chekka tumanlarda ham bolalar va o'smirlar sport maktablarini tashkil etish kerakligini muhim vazifa etib belgilandi.

### Adabiyyotlar sharhi (Обзор литературы/Literature review).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining to'rtinchi "Adolatlari ijtimoiy siyosat yurish, inson kapitalini rivojlantirish" ustuvor yo'naliishida bevosita sport sohasini ustivor rivojlantirish masalalari ta'kidlab o'tilgan bo'lib, unga ko'ra, "jismoniy tarbiya va sport bilan mutazam shug'ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish, sport o'yinlari o'tkaziladigan sport ob'ektlari infratuzilmasini yaxshilash va zarur sport inventarlari bilan jihozlash" kabi vazifalar belgilab berilgan .

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.08.2022-yildagi 465-soni qarori hamda "Jismoniy tarbiya va sport ob'ektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash ishlari moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.08.2019-yildagi PF-5787-soni Farmonlari sport sohasini rivojlantirishga xizmat qildi.

### Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda sport sohasini moliyalashtirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarining nazariy va amaliy xususiyatlarini har tomonlama yoritishni ta'minlash uchun sifat va miqdoriy metodologiyalarni birlashtirgan holda o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekistonda sport sohasini moliyalashtirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlar bo'yicha statistik ma'lumotlar taqqoslama tahlillar olib borilgan va tadqiqotlarda adabiyotlar ham ko'rib chiqilgan.

### Tahlil va natijalar (Анализ и результаты/Analysis and results).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisiga taqdim etilgan Murojaatnomasida, "...jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish yana bir dolzarb vazifadir. Sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqlarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga bundan buyon ham katta ahamiyat beramiz. Yosh avlodimiz o'rzasida sportni ommalashtirish maqsadida eng chekka tumanlarda ham bolalar va o'smirlar sport maktablarini tashkil etamiz".

Darhaqiqat, dolzarb vazifalar qatorida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish borasida izchil islohotlar natijasida respublikamizning barcha hududlarida bunyod etilayotgan zamонави sport inshootlarining mavjud salohiyatidan samarali foydalanish hisobiga o'sib kelayotgan yoshlarning jismoniy tarbiya va sport bilan bandligini ta'minlashga erishish hamda xalqaro sport turnirlari va jahon arenalaridagi musobaqlarda sovrinli o'rinalar qo'lga kiritib kelinmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport mamlakat fuqarolari hayoti va turmush tarzining ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kun yoshlarning keng imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratib berish ularni sport orqali sog'lom tarbiyalashni singdirish, yuksak ma'naviyatlari inson qilib tarbiyalashda har tomonlama yetuk inson bo'lishga ko'maklashish katta ahamiyatga egadir. Bizning yoshlarimiz nafaqat har tomonlama ma'lumotli va ma'naviy yetuk emas, balki sog'lom, chiniqqan, jismoniy baquvvat bo'lishi ham kerak. Bunday bo'lish uchun sport harakatining ommaviyligiga e'tibor berish, jismoniy tarbiyanı rivojlantirish yoshlarning, irodaviy sifatlarini chiniqtirish, yigit va qizlarning jismoniy jihatdan mehnat va mudofaga tayyorlash zarur bo'лади.

Mamlakat aholisining salomatligini mustahkamlab borish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, o'quvchi va talaba yoshlarning jismoniy va

ma'nnaviy kamolotini oshirish, sog'lom avlod tarbiyasini takomillashtirish masalalarini tubdan hal etish istiqboli buyuk davlat qurishning muhim poydevori hisoblanadi.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida shakllanishi va uning istiqlol sari dadil borishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy ma'rifiy sohalarni yanada takomillashtirishni taqazo etadi. Bu yo'lda sog'liqni saqlash, fan, madaniyat, texnika, iqtisod, ta'lim-tarbiya, jismoniy tarbiya va sport hamda boshqa sohalarda chuqur islohotlar olib borilmoqda.

#### 1-jadval

**2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilariga ajratiladigan byudjet mablag'larining cheklangan miqdorlari (mln. so'm)**

T/r	Ko'satkichlar	Summa
	<b>Respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'lar, jami</b>	<b>228 262 476,1</b>
	<b>O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi</b>	<b>1 477 124,7</b>
<i>shu jumladan:</i>		
1	joriy xarajatlar	1 191 398,2
	shundan:	
2	rivojlantrish dasturlari uchun xarajatlar	785 130,0
3	Olimpiya o'yinlariga samarali tayyorgarlik ko'rish uchun xarajatlar	216 000,0
4	Paralimpiya o'yinlariga samarali tayyorgarlik ko'rish xarajatlar	34 000,0
5	sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasiga kiritilgan tadbirlar uchun xarajatlar	215 030,0
6	yurish, yugurish, mini-futbol, velosport, badminton, strifbol va «Workout» kabi sport turlarini ommalashtrish va rivojlantrish dasturlarini amalga oshirish uchun xarajatlar	50 000,0
7	sport maktablarini tibbiyot xonalari zamonaviy asbob-uskunalar, dori-darmon va tiklanish vositalari bilan jihozlash, zamonaviy o'quv adabiyotini chop etish va xarid qilish, sport maktablari shug'ullanuvchilarini (tema jamoalarini) masshus sport kiyimlari (ekipirovkalari) bilan ta'minlash uchun xarajatlar	25 000,0
8	«Besh tashhabus olimpiadasi» doirasidagi sport musobaqalarini tizimli tashkil etish va o'tkazish uchun xarajatlar	35 000,0
9	«Kurash» xalqaro assotsiatsiyasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun xarajatlar	10 100,0
10	yoshlarning bandligiga ko'maklashishi va ulamning ijtimoiy himoyasini kuchaytrish uchun subsidiyalar	150 000,0
11	«Zakova» intellektual klubining xarajatlar	50 000,0
12	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	285 726,5


Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentini huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari.

Milliy olimpiya qo'mitasi hamda sport tashkilotlari hamkorligida iqtidorli sportchilarini saralash va temra jamaoalarni shakllantirish, sportchilarning mahalliy va xorijiy o'quv-mash'ulot yig'inlarini tashkil etish, ularning nufuzli musobaqalardagi munosib ishtirotikini ta'minlash borasida qator ishlar amalga oshirilishi belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.11.2021-yildagi PQ-5281-soni "2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida" gi qaroriga ko'ra "...sportni moliyalashtirish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqib, ushu jarayoning shaffof bo'lisi hamda sarflangan mablag'larining natijadorligiga e'tiborni qaratish; Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'larining samaradorligi, shaffofligi va hisobdarligini oshirish maqsadida, O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi, O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi va sport federatsiya (assotsiatsiya) lariga Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rish uchun mablag' ajratish bo'yicha alohida tartibni joriy qilish" masalalari belgilab berildi.

1-jadvalda mamlakatimiz hududlarida 2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilariga ajratiladigan byudjet mablag'larining cheklangan miqdorlari keltirilgan bo'lib, unga ko'ra Respublika byudjetidan ajratiladigan jami mablag'lar 228 262 476,1 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan esa 1 477 124,7 mln. so'm ajratilgan.

Tahillarga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1-rasmida mamlakatimizda sport sohasiga 2019-2023 yillarda ajratilgan mablag'lar dinamikasi



**1-rasm. O'zbekiston Respublikasida sport sohasiga 2019-2023 yillarda ajratilgan mablag'lar dinamikasi (mln.so'm)<sup>4</sup>**

keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, 2019 yilda jami ajratilgan mablag' 979592,1 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 2737632,7 mln.so'mni tashkil etgan bo'lib, 2019-yilga nisbatan 1758040,6 mln.so'mga ortgan. Shuningdek, ajratilgan mablag'lar asosan respublikamiz bo'ylab sport maktablarini saqlash hamda ixtisoslashgan sport maktablarini saqlashga ketgan harajatlar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantrish dasturi tasdiqlanib, unga muvofiq keng ko'lamli, aniq maqsadli ishlar amalga oshirilishi ko'nda tutilgan. Dasturga muvofiq:

- jismoniy tarbiya va sport sohasini tashkil etish va boshqarish tizimini rivojlantrishga yo'naltirilgan qonunchilikni yanada takomillashtirish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasining moddiy-teknik bazasini mustahkamlash, zamonaviy sport komplekslarini qurish, ularni zamonaviy sport uskunalarini va anjomlari bilan jihozlash, mazkur sohada xususiy sektorni rivojlantrish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalarini ilmiy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, sport maktablarini yuqori malakali murabbiylar va tibbiyot xodimlari bilan ta'minlash;

- ta'lim muassasalarini o'quvchi va talabalari, aholining keng qatlamlari o'rtaida sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya, ommaviy sport ishlarini tashkil etish, kompleks sport musobaqalarini o'tkazish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarini saralab olish va ularni maqsadli tayyorlash kabi yo'nalishlarda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

#### Xulosa va takliflar (Заключение/Conclusion).

Xulosa o'mida aytish joizki, sport faoliyatini ommaviy darajada rivojlantrish bilan birga, sport sohasini moliyalashtirishni oqilona tashkil etish muhim ahamiyatiga ega.

Mamlakatimiz sport sohasini rivojlanish jarayonlarini moliyalashtirish orqali biz kelajak avlodni jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishlarini yanada rag'battantirishga erishishimiz mumkin. Sport sohasini moliyalashtirishni rivojlantrishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan asosiy masalalar quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir: sport sohasiga barchani birdek qiziqtirishga oid muhim dasturlarni ishlab chiqarish; sport infratuzilmalaridan samarali foydalish maqsadida sport musobaqalarini keng targ'ib qilish hamda moliyalashtirishda xususiy mablag'larni jalb qilish; sport sohasini rivojlantrish orqali har bir sport mahsuloti yoki xizmati o'z iste'molchisini topishi hamda sport turlari bo'yicha sport muxlislari va tomoshabinlarni ko'paytirish orqali daromad manbaini ko'paytirishga moydevor yaratish muhim ahamiyatiga ega.

#### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni. 2018 yil 5 mart. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi// Xalq so'zi, 28 dekabr, 2018 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.11.2021 yildagi PQ-5281-soni "2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida" gi qarori. <https://lex.uz/docs/5713410>
5. Colleen Bee Vassilis Dalakas. 2021. Introduction to special issue on sport marketing and sponsorship. Journal of Business Research. Volume 124. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0148296320308365>

- 
6. Michal Varmus Milan Kubina. 2015. Innovative Approaches to Creation of Marketing Communications for Sports Clubs. Procedia Economics and Finance. Volume 26, 2015, Pages 12-16.  
<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2212567115007947>
7. Nathan Kirkpatrick, Joseph Pederson, DarinWhite. 2018. Sport business and marketing collaboration in higher education. Journal of Hospitality, Leisure, Sport & Tourism Education. Volume 22, June 2018, Pages 7-13  
<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1473837617301521>
5. Vanessa and Ratten, Hamish 2011, International sport marketing: practical and future research implications, Journal of business and industrial marketing, vol. 26, no. 8, pp. 614-620.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. <https://www.stat.uz/uz/>
- ..